

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

YULDASHEVA DILOROM ALIYEVNA

**BADIIY DISKURSDA “SUBYEKT” KATEGORIYASI KONSEPTUAL
VOQELANISHINING LINGVOMADANIY TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.111'42:008-047.37
811.512.133'42:008-047.37

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Yuldasheva Dilorom Aliyevna

Badiiy diskursda “subyekt” kategoriyasi konseptual voqelanishining
lingvomadaniy tadqiqi 3

Yuldasheva Dilorom Alievna

Linguocultural research of the conceptual realization of the category “subject” in
literal discourse..... 25

Юлдашева Дилором Алиевна

Лингвокультурологическое исследование концептуального воплощения
категории «субъект» в художественном дискурсе 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 49

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

YULDASHEVA DILOROM ALIYEVNA

**BADIIY DISKURSDA “SUBYEKT” KATEGORIYASI KONSEPTUAL
VOQELANISHINING LINGVOMADANIY TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2706 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.adchti.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinova
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Najmiddinov Muhammadjon G‘ayratjon o‘g‘li
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat chet tillari instituti.

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil “_____” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0 (374) 223 4276, faks: 0 (374) 223 4276; e-mail: info@asifl.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: 0 (374) 223 4276).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi
filologiya fanlari doktori, professor

A.Dj.Atoboyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.X.Shaxabitdinova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon tilshunosligi taraqqiyotining yetakchi yo‘nalishi bo‘lgan antropotsentrizm paradigmasi doirasida barcha til birliklarining funksional-semantik va lingvokognitiv tadqiqi keng hajmda amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, lingvistlar faol kategorial shakllardan biri hisoblangan subyekt kategoriyasi konseptual interpretatsiyasining inson tomonidan dunyoni bilish vazifasini bajarishdagi o‘ziga xos rolini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratmoqdalar. Globalizm davrida ingliz tili funksional ko‘lamini ona tili bo‘lmagan xorijiy davlatlarda ham kengayishi ingliz tilining funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlariga aloqador masala va muammolarni yanada chuqurroq, yangi metod va yondashuvlarga tayangan holda keng tadqiq qilish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Dunyo tilshunosligida funksional ko‘lami jihatdan rivojlangan barcha tillarda insonlararo muloqotning asosiy birligi bo‘lgan gap strukturasi ajralmas qismi bo‘lgan subyektning kategorial semantikasi va konseptual interpretatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini talqin qilishga tilshunoslar katta qiziqish bildirmoqdalar va bu jihat til unsurlarining dunyoni bilish jarayonidagi o‘rni hamda rolini belgilovchi sabab va omillarni o‘rganish zaruriyati bilan bog‘liq.

Mamlakatimizda tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda subyekt kategoriyasini umumiy hamda xususiy tilshunoslik muammosi sifatida o‘rganish an’anaviy tilshunoslikning turli maktab va yo‘nalishlari tomonidan o‘rganib kelindi va bunda asosan struktural-semantik kontekstual, distributiv va funksional variantlilik ustunlik qildi. Shu o‘rinda, Prezidentimizning quyidagi fikrini keltirib o‘tish o‘rinli: “Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir”¹. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, bugungi kunda masalalarining ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilishi tilshunoslik sohasida keng ko‘lamli izlanishlar olib borishni, sohaga oid yangi avlod darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish ishlarini yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Bu bosqichda sub’ektning funktsional-semantik va lingvokognitiv xususiyatlarini o‘rganilaytgan tillar kesimida tadqiq etish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 124-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilishi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-49-47 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi haqida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish haqida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 8-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tilini o‘qitishni yanada

¹ Mirziyoyev Sh. Ilm fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili // www.standart.uz (murojaat sanasi: 23.04.2024)

takomillashtirish chora-tadbirlari haqida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilini davlat tili sifatida nufuzi va mavqeiini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida hamda mazkur soha bo‘yicha qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Subyektini nutqda ifodalash muammosi bevosita tildagi subyektivlik masalasi bilan bog‘liq va u mantiqiy kategoriyalar doirasida o‘z aksini topadi. Bu masala jahon tilshunosligida jiddiy tadqiq etilgan. Tilda subyekt kategoriyasi, uni ifoda etish vositalari va usullarini o‘rganish hamda lingvomadaniy tadqiq etish german tillari doirasida lingvistik interpretatsiya yo‘nalishida amalga oshirilgan. Subyekt kategoriyasining ishlatilish ko‘lamini aniqlash va ularning struktural-kombinatorik imkoniyatini o‘rganish bo‘yicha jahon tilshunosligida O.Jespersen, R.M.Xerts, Y.Kruisinga, R.Lakov, L.F.Don Nilsen, D.Zigel, G.P.Stenli va F.T.Visser² kabi olimlar tadqiqot olib borganlar.

Subyektning konseptual interpretatsiyasi, diskursiv va lingvokognitiv xususiyatlari, mazmun-mohiyati, maqsadi, nutqdagi vazifasi va o‘ziga xos xususiyatlari, belgilari, kommunikativ parametrlari masalasi rus tilshunosligida D.S.Lixachev (1997), Y.D.Apresyan (1995), A.Vejbitskaya (1997), Z.D.Popova (2001), N.F.Alefrenko (2005), A.V.Kuznetsova (2010), N.N.Baldirov (2000), N.D.Arutyunova (1999), G.V.Kolshanskiy (1990), Y.S.Kubryakova (2009)³ kabi tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlarda asosiy e‘tibor dunyoni bilishda interpretatsiya jarayoni tilning turli sathlariga muvofiq birliklar tomonidan amalga oshirilishi qonuniyatlari ochib berilgan.

Bu kategoriya o‘zbek tilshunosligida bir qator tilshunos olimlarning grammatikaga oid ishlarida ham o‘rganilgan. Sh.Safarov, Nurmonova, Maxmudov

² Jespersen O. *Modern English Grammar on historical principles* 15, Vol. 4. Ldn, 2004. – P. 697; Hertz R.M. *The Grammar of English causativa-transivity*, Ann Abrur. Michigan, 2005. – P. 587; Kruisinga E.A. *Handbook of PresentDay English*, Part II, Utrechi. 2005. – P. 478; Don Nilsen I.F *Semantic theory A linguistic perspektive*. Newbury Houze Publishers, Rowlex Mass, 1975. – P. 191; Siegel D. *Non soures of unpassives*. -In: *Syntax and semantics*, vol.2. – N-Y. 1993; – P. 324; Stanley G.P. *Passive motivation – Foundations of Language*, Boston. 1985. vol 18 № 1; Visser F.T./ *An Historical syntax of English language*, P/H, half, 3 – Leiden, 1973. – P. 512;

³ Лихачев Д.С. *Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста*. – М.: Academia, 1997; – С. 147 – 165; Апресян Ю.Д. *Образ человека по данным языка: попытки системного описания*. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1995; – С. 37 – 67; Вежбицкая А. *Язык. Культура. Познание*. – М.: Русские словари, 1997. – С. 412; Попова З.Д. *Очерки по когнитивной лингвистике*. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. – С. 191; Алефиренко Н.Ф. *Спорные проблемы семантики*. – М.: Гнозис, 2005. – С. 326; Кузнецова А.В. *Художественная когнитивность: образ автора, концептуализация, стиль*. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 2010. – С. 324; Арутюнова Н.Д. *Язык и мир человека*. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 896; Болдырев Н.Н. *Когнитивная семантика*. – Тамбов: ТГУ, 2000. – С. 235; Гак В.Г. *Языковые преобразования*. – М.: Языки русской культуры, 1998. – С. 763; Колшанский Г.В. *Объективная картина мира в познании и языке*. – М.: Наука, 1990. – С. 107; Кубрякова Е.С. *Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов*. – М.: Изд-во МГУ, 1996. – С. 429 – 450.

N,⁴ kabi olimlar esa badiiy asarlarda subyektning lingvistik va madaniy aspektlarini tadqiq qilish bilan shugʻullanganlar.

Dissertatsiya nazariy bazasini shakllantirishda keyingi paytlarda dolzarb sanalgan germevtika va interpretatsiya nazariyasiga asoslanildi. Qayd etilgan manbalar subyekt kategoriyasining olam lisoniy manzarasini yaratishdagi roli, uning funksional-semantik va lingvokulturologik tadqiqiga oid, shuningdek, mazkur til birliklarining muayyan tillarda namoyon boʻlish xususiyatlarini oʻrganishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shunga qaramay, dunyoni til tomonidan interpretatsiya qilish nazariyasi va taraqqiyoti tilshunoslikda mavzuning yaratilish tarixi, unga doir yangi nazariy qarash va talqinlar, oqim va farazlar ilgari surilgan yangi tadqiqotlarni taqozo qiladi, chunki subyektning mavjudlik shakllari, ularning funksional-semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlili kam oʻrganilgan muammolardan sanaladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Qoʻqon davlat pedagogika instituti davlat ilmiy tadqiqot rejasining “Tilni sistem-struktur va funksional asosda tadqiq etish” yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi subyekt kategoriyasining dunyo lisoniy tasvirini yaratishdagi ishtiroki va uning lingvokulturologik jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

subyekt kategoriyasining ifoda vositalarini turli tizimli tillarda konseptual voqelanish muammosini oʻrganib chiqish;

subyekt kategoriyasining muayyan tillardagi tahlili asosida uning funksional-semantik imkoniyatlarini farqlash;

turli tillarga mansub subyekt kategoriyalarini shakllantiruvchi feʼl guruhlarining semantik kategorizatsiyasini amalga oshirish;

subyekt kategoriyasini voqelantiruvchi til elementlarining dunyo lisoniy tasvirini yaratishdagi ishtiroki koʻlami masalasini tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida turli tizimli tillardagi subyekt kategoriyasi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini subyekt kategoriyasini ifoda etuvchi til birliklarining struktural-semantik, funksional-pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida tasniflash, kontekstual, distributiv va struktural tahlil hamda kategoriyalash kabi bir qator metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

matn nuqtayi nazaridan subyekt kategoriyasining funksional qoʻllanilishi, shakllanishi va ishlatilish doirasining chastotasi lingvokulturologik jihatdan ochib berilgan;

⁴ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах; Сангзор, 2006. – В. 92; Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тили назарий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 149; Абдурхмонов Ф. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 207; Фуломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. –Б.279;Раҳматуллаев Ш .Ҳозирги адабий ўзбек тили.–Тошкент:Фан, 2010. – Б. 298; Ҳожиёв А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 194; Мелиев К. Ҳозирги туркий тилларда сифатдошлар. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 167; Сафаев А.С. Главные члены простого предложения в современном узбекском языке. – Тошкент: САГУ, 1950. – С. 80.

o'rganilayotgan tillar materiali asosida turli matnlarda qo'llanadigan subyekt kategoriyasining konseptual-semantik xususiyatlari aniqlangan va aniq, majhul, o'zlik, kauzativ, medial va birgalik nisbat shakllarida ishlatilishi dalillangan;

semantik guruhdagi fe'llar bilan subyektning kombinatorikasi jarayonida ro'y beradigan konseptuallashtirish, ifodalash, kuchaytirish kabi potensial imkoniyatlari asoslangan;

turli tillarda subyekt kategoriyasi shakllarining milliy, mental, pragmatik xususiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o'quv yurtlarida umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, etnopsixolingvistika, lingvokulturologiya bo'yicha darsliklar yaratish hamda ma'ruza matnlari tayyorlash va amaliy mashg'ulotlarning mukammallashuviga xizmat qiladigan materiallar yig'ilgan;

turli tizimli tillaridagi subyekt kategoriyasi shakllarining konseptual voqelanish jarayoni aks etgan matnlar to'plangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy grammatika, umumiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, monografiyalar, dissertatsiyalar va maqolalar yozishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati turli tizimli tillarning turli jihatlari hamda amaliy va nazariy grammatika, umumiy tilshunoslik uchun darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy tavsiyalar, lug'at hamda so'zlashgichlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Subyekt kategoriyasini shakllantirish, uning olam lingvistik tasvirini yaratishdagi ishtirokini turli tillarda namoyon bo'lishining funksional semantik va lingvomadaniy tadqiqi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida:

badiiy diskursda qo'llanilgan subyekt kategoriyasining funksional jihatdan matn turlarida qo'llanilishi va subyekt kategoriyasini shakllantirish ma'no ko'lami doirasida ularning keng yoki kamroq ishlatilishi kabi farqli tomonlari haqidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining "Erudit" shifrlı yopiq fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 21.08.2023-yildagi 10/1626-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy diskursda qo'llanilgan subekt kategoriyasining funksional jihatdan matn turlarida qo'llanilishi va subekt kategoriyasini shakllantirishning ma'no ko'lami doirasida ularning keng yoki kamroq ishlatilishi kabi farqli tomonlari ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tilidagi manbalar asosida turli matnlarda qo'llanilgan subyekt shakllarining konseptual-semantik xususiyatlari tavsifi borasidagi ilmiy

xulosalardan Qo‘qon davlat pedagogika instituti S-ECAGD-18-CA-0067 (PO20002335) raqamli “FY 2018 English Access Microscholarship Program” nomli Amerika Qo‘shma shtatlari ta‘lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi amaliy loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Qo‘qon davlat pedagogika institutining 18.04.2023-yildagi 112-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘rganilayotgan tillarda subyekt kategoriyasi shakllarining yasalishi, ularning boshqa grammatik kategoriyalardan farqlanish jihatlari va tillardagi bunday holatlarning o‘xshash va farqlanish belgilari haqida ma‘lumot berishda foydalanilgan;

subyektning turli semantik guruhdagi fe‘llar bilan kombinatorikasi jarayonidagi konseptuallashtirish, ifodalash, kuchaytirish, bog‘lanish cheklash kabi potensial imkoniyatlari haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali”da “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz”, “Adabiy jarayon” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 5-noyabrdagi 04-36-728-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada tillarda subyekt kategoriyasi shakllarining konseptual kategoriyalash mexanizmi, vosita va turlari til funksional shakllarining funksional qiymatini belgilashda qayta rol o‘ynashi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyeksi aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob “**Tadqiqotning nazariy asoslari**” deb nomlangan, mazkur bobda mavzuga aloqador tadqiqotlarning ahamiyati, o‘rganilish bosqichlari, tahlil turlari, talqini keng yoritib berilgan. “**Tilning antropotsentrik mohiyati xususida**” faslida bugungi kundagi sohaga oid ko‘tarilayotgan muammolar va ularning yechimiga doir mulohazalar jahon va o‘zbek tilshunosligi misolida ochib berilgan.

Antropotsentrik paradigmaning asosiy yo‘nalishlari safatida talqin qilinayotgan lingvokulturologiya, pragmalingivistikaning bazaviy ta’limotiga ko‘ra, til va uning egasi asosiy vazifani bajaradi. Antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish kognitiv tilshunoslik “*cognite*” (bilishga oid) so‘zi bilan bog‘liq. Olamni, voqelikni bilish, idrok etish oddiy hodisa emas. Shu sababli tafakkur faoliyatida shaxs hamda uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagi ijtimoiy, madaniy hodisalarni ham inobatga olish kerak bo‘ladi. Ammo ta’kidlash kerakki, inson tomonidan tilsiz bu jarayonlarni tasavvur qilinishining o‘zi mushkul hodisa, uning zamirida, albatta, insonning bilish jarayoni va egallagan bilimi yotadi. Sababi insonning lisoniy zaxirasi uni o‘rab turgan borliq bilan chambarchas bog‘liq holda boyib boradi. Tillar yordamida milliy madaniyatni tadqiq qilish aslida o‘rganilayotgan tillarning qanday bilimlar asosida shakllanganligi hamda sayqallanganini o‘rganishdan iborat.

Abu Nasr Forobiyning ta’biri bilan aytganda, “inson o‘zini qurshab turgan olamni va o‘zini o‘zi bilish orqali eng yetuk mavjudotga aylanadi. Bilish insonning mohiyati hisoblanadi. Bilishdan maqsad haqiqatga erishmoqdir. Har qanday bilish, dastavval, o‘zini qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarni kuzatishdan boshlanadi. Chunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o‘zining tabiiy asosidan oldin bo‘lishi mumkin emas”⁵. Borliqdagi narsa va hodisalarning turli nom bilan atalishi hamda interpretatsiya qilinishi insonlarning tildan foydalanishidagi xilma-xillikni ta’minlaydi.

Ingliz tilida *yo‘lbars* komponentli til birliklari sermahsul hisoblanmaydi, misol uchun, *to fight like a tiger – jasorat bilan jang qilmoq, (as) fierce as a tiger – yo‘lbars kabi shafqatsiz*. Misolda yo‘lbarsning yirtqich ekanligi va hattoki insonga ham hamla qilishi, shafqatsizligi inobatga olingan. Ta’kidlash joizki, xitoy tilida yo‘lbars komponentli til birliklari sermahsul hisoblanadi.

Tahlil etilgan misoldan ko‘rinadiki, tilning antropotsentrik jihatini tahlil qilishda til birliklarining xilma-xilligi, inson omili hamda uni o‘rab turgan borliq muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “**Til birliklarini kategoriyalashtirishga kognitiv yondashuv**” deb nomlangan.

Til birliklarining lingvokognitiv tadqiqida kategoriyalashtirish muammosi tayanch masalalardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, turli fanlar mohiyatidan kelib chiqqan holda, *kategoriya* tushunchasi har xil talqin etiladi. Ulardan birinchisi falsafiy kategoriyadir.

Falsafiy kategoriyalar voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim, alohida munosabat va aloqalarini ifodalash bilan birga, butun olam, inson hayoti va tafakkuriga xos xususiyatlar va munosabatlarni ham aks ettiradi. Shu bois har bir aniq fan o‘zi o‘rganayotgan sohaning xususiyati va belgilarini ochishda falsafiy kategoriyalarga murojaat qiladi.

Falsafa tarixida *kategoriya* tushunchasini birinchi bo‘lib Aristotel o‘zining “Kategoriyalar” asarida ta’riflab bergan. U kategoriyaga obyektiv voqelikning umumlashgan in’ikosi sifatida qarab, *substansiya (mohiyat), miqdor, sifat,*

⁵ А.Нурмонов. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 232.

munosabat, makon, zamon, vaziyat, holat, harakat, uqubat kabi turlarga ajratgan⁶. Platon esa quyidagi kategoriyalarni farqlagan: *mohiyat, harakat, tinchlik, o'xshashlik, farqlilik*.

I.Kant kategoriyani aqlning tajriba va faktlarga asoslanmagan shakli sifatida baholagan. Uning fikricha, kategoriyalar “narsalarning o'zida emas” (“narsa o'zida”), balki subyekt, uning tafakkur strukturasi aks etadi. I.Kant quyidagi kategoriyalarni ajratgan: *sifat, miqdor, munosabat, modallik*.

Umuman, falsafada kategoriyalar insonning olamni bilishi va idrok etishi nuqtayi nazaridan shakllanganligi haqida guvohlik beradi. Kategoriyalar, birinchidan, insonning tabiat, jamiyat hodisalarining mohiyati va qonuniyatini bilishi jarayonida erishgan bilimlari hisoblanadi, ikkinchidan, ularning voqelikni yanada chuqurroq bilishi va uning sirlari hamda qonuniyatlarini ochishida qo'llaniladigan muhim ilmiy vositalar hisoblanadi⁷.

Antropotsentrizm paradigmasi doirasida paydo bo'lgan va rivojlangan kognitiv tilshunoslik hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan kognitiv grammatika hozirga kelib o'z terminologiyasi va tushunchalar apparatiga ega bo'lib ulgurdi.

Kategoriya muammosi o'zbek tili materiallari asosida ham turli yillarda anchayin keng tavsiflangan. Xususan, A.G'ulomov hozirgi zamon o'zbek tilida ko'plikning ifodalanishi masalasini tizimli tarzda batafsil tahlil qilgan⁸. Sh.Shahobiddinova o'zbek tilidagi morfologik kategoriyalarning quyidagi turlarini ajratgan: son, egalik, kelishik, subyekt, qiyos, nisbat va o'zgalovchi kategoriyalari⁹.

Subyekt uchun o'zi yashaydigan atrof-borliqdagi jismoniy obyektlar va ularning parametrlarini tasniflash, tabiatning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishdan ko'ra ko'proq fikrlash jarayoni muhim hisoblanadi. Tasniflashning bu kabi jihati fikrlash jarayonini kategoriyalashtirish deb ataladi, uning natijalari esa kognitiv kategoriyalar sanaladi. Masalan, ranglarning kognitiv kategoriyalari: oq, yashil, qizil, sariq, ko'k¹⁰.

Shuningdek, kognitiv kategoriyalashtirish kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bazaviy, subordinat va superordinat darajalarga bo'linadi.

Kognitiv-konseptual kategoriyalashtirishning bazaviy darajasiga xos yuqorida sanab o'tilgan barcha xususiyatlarni tizimlashtirgan holda, J.Lakoff ta'kidlaydiki, bazaviy darajadagi kategoriyalar quyidagi nuqtayi nazardan bazaviy hisoblanadi:

- 1) idrok (shaklni yaxlit idrok etish, yakka mental obraz, tezkor aniqlash);
- 2) funksiyalar (umumiy harakatlantirish dasturi, ya'ni mazkur daraja kategoriyalarining obyektlari bilan bo'ladigan harakatlarning yagona tizimi);
- 3) aloqa (eng avvalo, bolalar tomonidan yodlab olinadigan va lug'at tarkibida birinchi bo'lib keladigan eng qisqa, eng ko'p uchraydigan va kontekstual neytral so'zlar bilan belgilanadi);

⁶ Аристотель. Категории. Перевод А.В.Кубицкого. – М.: Соцэкгиз, 1939. – С. 84.

⁷ Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти”, “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. – Б. 195.

⁸ Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, 1944. – Б. 565.

⁹ Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 50.

¹⁰ Ungerer F., Schmid H. -J. An Introduction to Cognitive Linguistics. – L. – N.Y.: Longman, 1997. – P. 2.

4) bilimlarni tashkillashtirish (kategoriya a'zolari xususiyatlarining eng ko'p miqdori shu darajada saqlanadi).

Ma'lumotlarning aksariyati bitta konseptual darajada saqlanib qolishi va aynan shu oraliq daraja bu holatda bazaviy ekanligi, uning aynan fundamental psixologik funksiyasi – geshtaltni idrok etish, ya'ni qismlarning birligida butunlikni idrok qilish funksiyasi bilan izohlanadi. Bazaviy darajaning boshqa kategoriyalashtirish darajalari bilan tubdan farq qilishi insonning ushbu darajadagi kategoriya bilan bog'laydigan xususiyatlarda ko'rinadi. Bazaviy darajada kategoriyalar xususiyatlari butunning qismlari xususiyatlari bilan, ya'ni obyektning tarkibiy qismlariga qanday bo'linishi bilan bog'liq, bu esa, o'z navbatida, obyektlar haqidagi bilimlarimizda muhim o'rin tutadi.

Dissertatsiyada olib borilgan tizimli izlanishlar subyektning borliqdagi turli xarakterga ega voqea-hodisalarni tarkibiy bo'laklarga ajratish, segmentlash, asosiy voqea, ikkilamchi voqealarga ajratish va ularni nomlash orqali til unsurlaridan foydalanib, dunyoni maksimal darajada tasvirlash imkoniga ega bo'lishini ko'rsatdi.

Mazkur bobning uchinchi fasli “**Subyektning badiiy diskursdagi funksional yuklamasi**” deb nomlangan bo'lib, unda subyekt masalasining badiiy diskursdagi ahamiyati yoritilgan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” oxirgi nashri (2020-yil) 3-tom, 375-betida (O'TIL) “subyekt” termini va uning hosilalariga quyidagicha ta'rif keltiriladi.

Subyekt [*lot.* subjectum – “ostida, asosida turuvchi”]:

1. Mantiqda: muhokama qilinayotgan, hukm chiqarilayotgan predmet; mantiqiy ega.

2. Faol ish-harakat qiluvchi, biluvchi, ong va irodaga ega bo'lgan individ yoki ijtimoiy guruh. *Individ — ijtimoiy mavjudot, shu ma'noda subyekt ijtimoiy mazmun kasb etadi, ya'ni jamiyatning o'zi ham subyekt bo'lib kelishi mumkin (“O'zME”).*

3. *tlsh. ayn. ega 2. Gapning subyekt.*

Subyektiv – 1. Bir shaxsning, subyektning o'zigagina xos, o'zigagina tegishli; shaxsiy. *Subyektiv omillar.*

2. Bir kishining shaxsiy fikriga, qarashlariga asoslangan, bir taraflama, bir tomonlama. *Subyektiv kechinmalar. Subyektiv baho. Subyektiv qarashlar.*

Subyektivlik *ayn. Subyektivizm* – bahoning subyektivligi. *Fikrning subyektivligi. Voqelik yozuvchining qalb prizmasidan o'tadi, tasvir obyektiga munosabat subyektivlikning nozik momentlarida ko'rinadi (“O'TA”).*

Tilga subyektivlik singib ketgan, shuning uchun subyektiv, inson omili tobora ko'proq zamonaviy lingvistik tadqiqotlar markaziga o'tmoqda. Antropologik tilshunoslikning shakllanishi til tadqiqotlari diqqat markazining “insondagi til”dan “tildagi odam” yo'nalishiga o'tganligini ko'rsatadi.

“Tildagi odam” ifodasi matn kategoriyasiga zamonaviy tadqiqotchida katta qiziqish uyg'otadi. Bu inson tilidan foydalanish tamoyillari va qonuniyatlari haqidagi lingvistik fikrlarni chuqurlashtirish va konkretlashtirish zarurati bilan izohlanadi.

Subyekt va obyektning semantik kategoriyalar bilan subyekt va obyekt korrelyatsiyasini o'rnatish imkoniyati til hodisalarini tahlil qilishda strukturaviy-semantik yondashuvning afzalliklarini ochib beradi. Lingvistik dalillarni tahlil qilish

natijasida olingan subyekt va obyektning differensial belgilari ushbu jumla a'zolarining tarkibiy va semantik variantlarini to'liq va adekvat ravishda taqdim etish hamda ularning paradigmatlarini ochish imkonini beradi.

Gapning semantik tashkil etilishida subyekt muhim rol o'ynaydi. Uning asosiy to'g'ri semantik (ekstralingvistik voqelikni nazarda tutuvchi) vazifasi ko'rib chiqilayotgan voqelik obyektini aniqlashdir. Ushbu funksiyani bajarish uchun denotativ yo'naltirilgan so'zlar juda muvofiq keladi: ko'rsatish hamda kishilik olmoshlari, muayyan ismlar va umumiy otlarning ayrim turlari. O'zining ma'nosi bilan subyekt predikatga aylanadi, uni izohlash uchun u ma'lum shartlarni yaratadi. Predikat bilan bog'lanish subyektning ikkita funksiyasini hosil qiladi – obyektning aspektlash funksiyasi (uning umumiy yoki individual xususiyatlariga ishora qilish), u bilan taqqoslash mumkin bo'lgan predikatlarining semantik turlarini oldindan belgilab berish va bu anaforik funksiyadir. Buning ikkinchisi subyektga semantik retrospektivlikni beradi: nutq subyektini haqida allaqachon to'plangan ma'lumot (berilgan xabarning presuppozitsiyasi) u bilan aniq yoki bilvosita bog'langan bo'ladi, masalan: *Bu kishi Shomaqsud G'ulomovning shogirdlari – olim, sportchi, shoir, injener, mehnatkash odam – endi biz bilan ishlaydi.* Jumlada har uchala funksiya – identifikatsiya, aspektizatsiya va anafora – ma'lum bir gapning predmetiga xoslik mavjud. Umumiy mulohazalarning shakllanishi va obyektiv voqelikdan uzoqlashishi bilan subyektning roli o'zgaradi: subyektning aniqlovchi funksiyasi asosiy emas, uning predikativ yo'nalishi esa aniqlovchi vazifasiga ega bo'ladi.

Ishning ikkinchi bobi “**Kognitiv tilshunoslikda subyekt kategoriyasining o'rni**” deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi “**Kognitiv grammatikaning asosiy tushunchalari masalasi**” faslida sohaga oid tushunchalar mohiyati ochib berilgan.

So'nggi o'n yilliklar davomida olib borilgan kognitiv tilshunoslikka doir tadqiqotlarda inson ongida paydo bo'ladigan bilim, tasavvur usullari, shuningdek, til birliklarining konseptual mohiyati jamlangan. Konseptual mazmun tilning turli qatlamlari orqali beriladi. Ammo ko'p tilshunoslarning ta'kidlashicha, konseptual ma'lumotning eng muhim qismi, til nuqtayi nazaridan eng ahamiyatli ma'no-mazmunlar grammatikada, avvalambor, morfologiyada to'plangan¹¹.

Grammatikaning birlamchi bazaviy qismi bo'lgan morfologiyaning kognitivligi masalasini yo'lga qo'yish funksional (A.V.Bondarko, N.A.Kobrina, Y.S.Kubryakova, N.A.Slyusarev¹²), semiologik (Y.S.Stepanov¹³) va funksional-semiologik (N.N.Boldirev) grammatikaning so'nggi paytlarda yaratilgan nazariyalariga tayanadi.

Morfologik konseptlar leksik konseptlarga nisbatan ancha uyg'un hisoblanadi. Bu o'rinda morfologik so'zi umuman grammatik so'ziga sinonim bo'lib, sintaktik konseptlarni ham o'z ichiga oladi. Shunga asoslangan holda, ko'rib chiqilayotgan

¹¹ Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 344.

¹² Бондарко А. В. Теория морфологических категорий и аспектологические. – Москва: Наука, 2005. – С. 619. Кобрина Н.А. Грамматика Англиского языка / Морфология. Синтаксис. –М. 1999. – С. 496. Кубрякова Е. С. Основы морфологического анализа. – Москва: Наука, 1974. – С. 320. Слюсарева Н.А. Проблемы функциональной морфологии современного английского языка. – Москва: Наука, 1986. – С. – 215.

¹³ Степанов Ю. С. Семиотика. – Москва: Наука, 1971. – С. – 169.

konseptlar guruhli, regional va individual ma'nolarni hisobga olmagan tarzda, umummilliy darajada standartlashtiriladi. Bu turdagi konseptlar ma'nosiga xos turg'unlikni, ular asosida faqatgina morfologik kategoriya va shakllar orqali ko'rish mumkin bo'lgan kategorial ma'nolarni topamiz. Turg'unlik nisbiy tushuncha bo'lishi mumkin, chunki diskurs holatlari va tilning tarixiy rivojlanish omillariga tayangan holda, bunda morfologik va sintaktik konseptlarning o'zgaruvchanligi hamda ma'noviy beqarorligi hisobga olinadi. Morfologik va sintaktik konseptlarning bunday harakatchanligi ba'zi bir hollarda grammatik kategoriyalarning chegaralanishi aniq emas, degan fikrga olib keladi.

Kognitiv tilshunoslikda "voqelik" tushunchasi va undagi subyektning konseptual semantikasi keyingi paytlarda K.Tenni, Dj.Pusteyovski, Xana Filip, Xenri Devis va Layza Trevis¹⁴lar tomonidan keng o'rganila boshlandi.

Quyida badiiy diskursdan olingan ayrim gap - hukmlarning voqelik strukturasi tahlil qilamiz.

1. *John was said to die slowly (S.Crane) – John died slowly. He was said that for hours he struggled for breath.*

2. *John was said to die slowly – At the reading of the will, his children were furious – John's children were said to be furious.*

3. *John was said to die without a struggle – It is said that at the reading of the will his children were furious.*

4. *John is said to die last ear. It is said that at the reading of the will, his children were furious.*

Bu kabi holatlarda adverbial (ravishli) modifikatsiya gap mazmunini bildirishda muhim rol o'ynaydi. Bu gaplarda birlamchi, asosiy voqea – *John died*. Sub-voqealar – *Children were furious. They read the will*.

O'z subyektiga ega bo'lgan ikki voqelik birlashganda qaysi biri subyektning yetakchi unsuri, asosiy a'zosi bo'lishi va boshqasining sub-voqeaga aylanishi butunlay subyektning kommunikativ niyati va fe'lning semantikasiga bog'liq bo'ladi. Gap tarkibida qo'llanilgan fe'l-kesim hissiy bilish, aqliy bilish, kauzativ fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, mana shu fe'llar asosiy voqelikni bildiruvchi fe'l maqomini saqlab qoladi. Boshqa semantik mohiyatga ega bo'lgan fe'llar esa odatda sub-voqelikni bildiruvchi fe'l maqomini oladi.

Quyida voqelik kognitiv kategoriyasining asosiy tushuncha va tamoyillari asosida o'zbek tilidagi sodda va murakkablashgan sodda gaplarni tahlil qilamiz. "Odamlar o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi" (A.Qahhor). Bu gapda biz ikkita hukmni uchratamiz: o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani.

Ingliz tilidagi sifatdosh ishtirok etgan subyektiv qurilma va ravishdoshli subyektiv qurilma tabiatan boshqa shu turdagi gaplardan biroz farq qiladi va ular sintaktik-semantik hamda kognitiv komplementatsiya vazifasini bajarmaydi va maqsad endi diskursiv topikalizatsiya bo'ladi. Bu kognitiv funksiyaning asosiy

¹⁴ Pustejovskiy J., Mani I., Gaizauskas R. The Language of Time. – New York: Oxford university press, 2005. – P. 588.

maqsadi gapdagi u yoki bu hukmni asosiy mavzuviy hukmga aylantirish va unda subyektning roli haqidagi axborot ahamiyatini oshirishdan iborat bo'ladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "**Tilda subyekt kategoriyasi konseptual voqelanishining funksional tabiati**" deb nomlangan.

Subyekt – predmet, narsa, har qanday moddiy borliq, materialning nisbatan mustaqil va barqaror shakli. Predmetlar xususiyati va ular orasidagi munosabatlar ongdan tashqari hamda undan mustaqil bo'lganligi uchun xususiyat va munosabatlarni ham subyekt deb qarash kerak.

Mantiqda fikrimiz nimaga qaratilgan bo'lsa, u ham predmet deb yuritiladi. Bu ma'noda muhokama, tushuncha, xulosa chiqarishni ham predmet deb hisoblash mumkin.

Turli yo'nalishdagi fanlar bo'yicha dissertatsiya ustida ish olib borayotgan olimlarning ko'pchiligi ingliz tilida dissertatsiya obyektini "subject" shaklida tarjima qilish kerakligini tushuna olmay qiynalishadi.

Subyekt terminining quyidagi turlari va ma'nolari bor:

1) grammatik subyekt (mos ravishda "ega") gap sintaktik strukturasi- ga tegishli termin va tushuncha (ifoda plani);

2) semantik subyekt gapning mazmuniy strukturasi- ga oid tushunchadir kommunikativ subyekt. Axborotning mavzusi, ya'ni axborot, matn;

3) psixologik subyekt (birlamchi tasavvur);

4) mantiqiy subyekt (hukmning bir qismini tashkil etuvchi gap bo'lagi).

Subyektning bu turlari ko'pincha bir vaqtda ifodalanganligi uchun tarkibi turlicha voqelanishi mumkin. Masalan, *Qishlog'imizda fermer xo'jaligining egasi, brigadirimiz Abdunazarning xotini, Iqbolaning onasi bo'ladi*. Bu gapni yuqoridagi mezonlarga asosan ko'rib chiqaylik. Axborotning birlamchi kelib chiqish o'rni – qishlog'imizda – psixologik ega, gapda o'rin holi vazifasida; tema vazifasida esa – brigadirimiz, mantiqiy subyekt va grammatik ega – xotin. Chunki predikat tomon bildirilgan ish-harakat ayni shu xotin tomonidan bajarilgan. Subyekt tushunchasini tahlil qilish ega, tema (topic) va agens bilan o'zaro funksional aloqaga kirishishiga to'g'ri kelar ekan, subyekt ulardan biriga mos keladi. Subyektning ma'nosi bu qatordan birining ma'nosiga to'g'ri kelishi mumkin (masalan, mantiqiy subyekt) yoki bo'lmasa, u universal subyekt ma'nosini bildirishi mumkin, invariant vazifasini bildirishi mumkin.

Narsaning aspektlashuvi funksiyasi uning umumguruh va individual belgilarida namoyon bo'ladi. Predikatning semantik kategoriyasi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Bu funksiyalar qatoriga anaforik funksiyani ham kiritishimiz mumkin.

Demak, subyektlar qanday so'zlar bilan ifodalanishiga ko'ra, ikki yirik guruhga bo'linadi: substantiv subyektlar, substantivlashgan subyektlar.

Birinchi guruhdagi Substantiv subyektlar grammatik jihatdan otlar bilan voqelangan yoki rasmiylashtirilgan bo'ladi.

Misol uchun:

Bolalar kitob o'qiyapti.

Oybek uyiga qaytib keldi.

Kitob stolda yotibdi.

Ushbu gaplarda "bolalar", "Oybek" va "kitob" – substantiv subyektlardir. Ular kim yoki nima harakat qilmoqda yoki holatda ekanini ko'rsatib beradi.

O'zbek tilida substantiv subyektlar tushum, jonli va jonsiz otlarga ko'ra morfologik turlanishga uchraydi.

Ikkinchi guruhdagi subyektlar esa funksiyadagi subyektlar bo'lib, ular substantivlangan so'zlar bilan ifodalanadi. O'zbek tilshunosligida Substantiv subyektlar o'zbek tilida ham muhim o'rin tutadi, chunki ular gapning asosiy ma'nosini ifodalaydi va kim yoki nima haqida so'z ketishayotganini aniqlashga yordam beradi.

Substantivlashgan subyektlar – boshqa so'z turkumlarining (masalan, sifat, fe'l yoki boshqa toifalar) otga aylanishi va subyekt vazifasini bajarishini ifodalaydi. Bunday subyektlar gapda to'liq ot kabi harakat qilib, shaxs yoki predmetni ko'rsatadi.

Substantivlashish jarayoni:

1. Sifatlarining substantivlashishi: Sifatlar ba'zi hollarda predmet yoki shaxsni belgilash uchun ishlatilganda ot vazifasini bajarishi mumkin.

Yaxshilar doim yordam beradi. (Bu gapda "yaxshilar" – sifatning otga aylanishi.)

2. Fe'llarning substantivlashishi: Fe'llar predmet yoki holatni bildirganda ham otga aylanishi mumkin.

O'qish – muhim malaka. (Bu erda "o'qish" – fe'ldan otga aylangan va subyekt vazifasini bajarmoqda.)

3. Sonlarning substantivlashishi: Sonlar predmet yoki shaxsni ifodalaganda ot kabi qo'llanilishi mumkin.

Besh tezroq etib keldi. (Bu misolda "besh" – sonning substantivlashgan shakli.)

Substantivlashgan subyektlar oddiy otlar kabi morfologik o'zgarishga ega bo'lib, to'liq subyekt vazifasini bajaradi. Ular gapning ma'nosiga va tartibiga qo'shimcha mazmun kiritib, shakllanish qoidalariga ko'ra turli ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Subyektning badiiy diskursda voqelanish usullarini ingliz tili misolida ko'rib chiqamiz.

1. Nutq momentida gap borayotgan narsa oti. Masalan:

- *Love filled his soul. (J.Galsworthy)*

2. Subyekt qaratqich kelishigidagi (inglizcha Genetive case) ot bilan ifodalanadi. Masalan:

- *Oh, my dear Richard, Ada's is a noble heart. (Ch.Dickens)*

3. Subyekt sifatida badiiy diskursda olmoshlarning quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin: bosh kelishikdagi kishilik olmoshi (A personal pronoun in the Nominative case); ko'rsatish olmoshi (Demonstrative pronoun); jamlovchi olmosh (Defining pronoun); noaniq olmosh (Infinitive pronoun); inkor olmoshi (Negative pronoun); egalik olmoshi (Possessive pronoun); so'roq olmoshi (Interrogative pronoun).

Masalan:

After about an hour I heard Montgomery shouting my name. (H. Wells).

Bu gapda subyekt kishilik olmoshi tomonidan voqelangan.

That set me thinking of my plan of action. (H. Wells)

Subyekt mazkur badiiy diskursda ko‘rsatish olmoshi bilan voqelangan.

All were clad in the same soft et strong silky material. (H. Wells)

Bu kontekstda subyekt jamlovchi olmosh tomonidan voqelangan.

Everyone was silent for a minute. (H. Wells)

Bu kontekstda subyekt jamlovchi olmosh bilan voqelangan.

Nothing was said either side for a minute or two afterwards. (Ch.Dickens)

Bu kontekstda subyekt inkor olmosh bilan voqelangan.

Theirs is not a very comfortable logging. (Ch.Dickens)

Bu kontekstda subyekt bog‘langan shakldagi egalik olmoshi yordamida voqelangan.

Subyektning voqealantirishda turli kontekstlarda fe‘lning noaniq shakli (infinitiv) ham ancha ko‘p qo‘llaniladi.

Masalan:

To live is to fight. (Maqol)

To see is to believe. (Maqol)

To be a rich man, l’iontenant is not always roses and beauty. (Heym)

Subyekt ingliz tilida gerundiy, gerundiyli birikma yoki gerundiyli qurilma yordamida voqealantirilishi mumkin.

Masalan:

Lying doesn’t go well with me. (E.Caldwell)

Winning the war is what counts. (E.Heminway)

Anette’s being French might upset him alittle. (J.Galsworthy)

Forgetting some things is a difficult matter. (E.Vaynich)

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “**Subyekt ma’nosini kontekstda modifikatsiya qiluvchi til elementlari**” deb nomlanadi.

Kesim gapning bosh bo‘lagidir. To‘ldiruvchilar esa, asosan, bosh va qaratqich kelishiklaridan boshqa kelishikda kelgan ikkinchi darajadagi gap bo‘lagi sanaladi. Binobarin, kelishiklarning mustaqillik jihatidan gapda ikki xil xususiyatini ko‘ramiz. Bosh kelishik mustaqil ma’noga ega. Boshqa kelishiklar ayrim hollarda ma’lum ma’noni ifoda eta olmaydi. Ularning ma’nosi gapda, ot yoki fe‘l bilan sintaktik munosabatga kirishgandagina aniqlanadi. Demak, boshqaruvchi so‘z gapdagi ma’lum so‘zning u yoki bu kelishikda kelishini talab qiladi. Odatda, kelishik shakllari otlarning turlanishidan iborat bo‘ladi. Bu vaqtda so‘zlarning leksik ma’nosi o‘zgarmaydi, grammatik ma’nosi o‘zgaradi. Kelishik affikslari otlardan boshqa so‘z kategoriyalariga qo‘shilganda, ularning otlashishi tom ma’nosi bilan leksik xarakterdagi o‘zgarish emas, gap talabi – sintaktik ehtiyojga ko‘ra o‘zgarishdir. Shuning uchun ham kelishik vazifasida kelgan so‘z mutlaqo otlashadi, deyish bejiz emas. Bu vaqtda ot sintaktik vazifasini ado etishga kirishadi.

O‘zbek tilida to‘ldiruvchi vazifasida kelgan kelishikning formal belgisi ma’noga xalal bermagan holda ham tushib qolishi mumkin: *Men kecha kitobni o‘qidim – men kecha kitob o‘qidim* deyilganda, har ikki gapda ham *kitob* so‘zi to‘ldiruvchidir. Ba’zan esa formal belgining tushib qolishi natijasida sintaktik o‘zgarish vujudga kelishi mumkin: *Bu nur jilvasida yuzini anori dona qilay (S. Abdulla); Brigadalar uchastkalarga bo‘lindi* kabi gaplardagi yuz, uchastka so‘zlaridagi formal belgi -ni, -ga tushirib qoldirilsa, yuz aniqlovchiga uchastka logik

jihatdan to‘g‘ri obyekt, grammatik jihatdan ega bo‘lib qoladi. Lekin bunday holatlar umumiy emas. Ko‘pincha har ikki shaklda ham ishlatiladi.

Aniqllovchi otga bog‘lanib kelib, uning belgilarini ko‘rsatsa, hol predikatga bog‘lanib, uning belgilarini ifoda etadi. Shuning uchun ham ma‘lum darajada hol aniqllovchiga yaqin turadi. To‘ldiruvchida esa bunday xususiyat yo‘q. U holga nisbatan mustaqil va belgi tasavvurini ifoda etmaydi. Aniqllovchi va hol tobe bo‘lakdir. To‘ldiruvchilar esa yarim tobe, ikkinchi darajadagi gap bo‘lagidir.

Kelishik formasidagi so‘z faqat hol yoki to‘ldiruvchi, aniqllovchi vazifasidagina kelmaydi. U kesim vazifasida ham keladi. Bunday vaqtlarda ikki shaklni ko‘rish mumkin:

1. Qo‘shma kesimning bir qismi bo‘lib keladi:

Mehmonxona eshigiga kelib, taraddudda qoldi. Yo‘lchi pichoqni xamirga urgan holda hayratda qoldi (Oybek. “Qutlug‘ qon”).

2. Mustaqil holatda kesim bo‘lib keladi:

Beshserka qishlog‘i mast uyquda (A.Qahhor. “Qo‘shchinor chiroqlari”).

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, har bir so‘z aynan bir gapda ma‘lum vazifani bajarsa, ikkinchi gapda boshqa sintaktik vazifani ifoda etishi mumkin. Shuning uchun ham bir gapdagi vaziyatni hisobga olib, boshqa gapda ham unga shunday vazifani tirkash til faktlariga aslo to‘g‘ri kelmaydi.

Uchinchi bob **“Subyekt kategoriyasining konseptual semantikasi”** deb nomlangan bo‘lib, uning birinchi **“Subyektning sintaktika va semantikaga munosabati masalasi”** faslida subyekt masalasining sintaktika hamda semantika bo‘limlaridagi o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

